

## ICHKI TURIZM FAOLIYATI BILAN SHUG'ULLANUVCHI TUROPERATORLARNI RAQOBATBARDOSHLIGINI TA'MINLASHNING YANGI MEXANIZMLARI

**Sharipova Sevara Xushnud qizi**

Urganch Davlat Universiteti Talabasi

**Bakiyeva Gulzoda Xushnudbek qizi**

Urganch Davlat Universiteti Talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7130258>

**Annotatsiya.** Turizm jahon iqtisodiyotning barqaror rivojlanib borayotgan tarmoqlaridan biri hisoblanib, nafaqat rivojlangan, balki, rivojlanayotgan mamlakatlar va mintaqalar ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotining qudratli katalizatoriga aylandi. Turizm, ayniqsa, XXI asrga kelib keng taraqqiy etmoqda. Turizm – zamonaviy iqtisodiyotning muhim faoliyat sohalaridan biri bo'lib, insonlarning ehtiyojlarini qondirishga va aholi turmush darajasini oshirishga yo'naltirilgan.

**Kalit so'zlar:** obyekt, resurs, mahsulot, mexanizm, turistik, bozor, tovar, tarmoq, investitsion, kompleks.

## НОВЫЕ МЕХАНИЗМЫ ОБЕСПЕЧЕНИЯ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ ТУРОПЕРАТОРОВ, ОСУЩЕСТВЛЯЮЩИХ ВНУТРЕННЮЮ ТУРИСТИЧЕСКУЮ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ

**Аннотация.** Туризм считается одной из стабильно развивающихся отраслей мирового хозяйства и стал мощным катализатором социально-экономического развития не только развитых, но и развивающихся стран и регионов. Туризм, особенно в 21 веке, развивается широко. Туризм является одной из важных сфер деятельности современной экономики, которая направлена на удовлетворение потребностей людей и повышение уровня жизни населения.

**Ключевые слова:** объект, ресурс, продукт, механизм, туризм, рынок, товар, сеть, инвестиции, комплекс.

## NEW MECHANISMS TO ENSURE THE COMPETITIVENESS OF TOUR OPERATORS CARRYING OUT DOMESTIC TOURISM ACTIVITIES

**Abstract.** Tourism is considered one of the steadily developing sectors of the world economy and has become a powerful catalyst for the socio-economic development of not only developed, but also developing countries and regions. Tourism, especially in the 21st century, is developing widely. Tourism is one of the important areas of activity of the modern economy, which is aimed at meeting the needs of people and improving the living standards of the population.

**Keywords:** object, resource, product, mechanism, tourism, market, product, network, investments, complex.

## KIRISH

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldag'i PF-4947-soni "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni bilan tasdiqlangan 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar Strategiyasida iqtisodiyotni yanada modernizastiyalash va liberalallashtirishga alohida etibor qaratilgan. Ushbu ustuvor yo'nalishda turizm industriyasini jadal rivojlantirish mamlakatimizni barqaror yuqori suratlar bilan

rivojlantirishda asosiy omil va turtki bo'lishi nazarda tutilgan. Bu o'rinda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoev farmonidagi qo'yidagilarni takidlاب o'tish zarur: "Turizmga iqtisodiyotning strategik sektori maqomini berish, ushbu sohani barcha hududlarni va o'zaro bog'liq tarmoqlarni kompleks ravishda jadal rivojlantirishni yetakchi kuchga aylanishi lozim" Turizmni mintaqalar iqtisodiyotiga ta'sirini o'rganish va aniq ilmiy xulosalar qilish, hududlarni kompleks va mutanosib rivojlantirish, uzoq va o'rta muddatda mavjud turistik salohiyatdan samarali foydalanish, eng asosiysi aholi turmush darajasi va sifatini oshirish uchun nazariy asos bo'lib hizmat qiladi.

## TADQIQOT MATERIALLARI VA METODOLOGIYASI

Iqtisodiy jarayonlarni tubdan o'zgartirish va modernizatsiyalash sharoitida mintaqalarni kompleks rivojlantirish va xizmatlar bozorini shakllantirish bo'yicha bir qator muammolar yuzaga kelmoqda. Ushbu muammolarni hal qilish, ularni ilmiy-nazariy asoslashni va chuqr tahlil qilishni talab qiladi. Xizmatlar bozori muammosini faqatgina makro va mikro darajadagina emas, balki mintaqqa va mintaqaviy siyosat nuqtai nazardan o'rganish maqsadga muvofiq. Mintaqaviy iqtisodiyot o'zining ochiqligi bilan ajralib turadi. Bu xususiyat mintaqaviy bozorlarni tovarlar, moliya, mehnat, turizm, informatsion texnologiyalar va boshqa turdag'i bozorlar bilan o'zaro chambarchas bog'liqligini ko'rsatadi. Mintaqaviy iqtisodiyot umummamlakat miqyosida shakllanayotgan va rivojlanayotgan yagona bozor tizimini ajralmas qismi bo'lib, markaziy va tarmoqlar (tarmoqlararo) boshqaruvida o`ziga xos o`ringa ega.

## TADQIQOT NATIJALARI

Ilmiy-nazariy asoslarni o'rganishda mamlakat, mintaqalar va tarmoqlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarga aniqlik kiritish bilan boshlash kerak. Turizmni barqaror rivojlanishida turistik resurslarning iqtisodiy mazmuni yotadi. Hozirgi kunda ko'pgina mamlakatlarda turizm milliy iqtisodiyotini rivojlantirishning muhim omili hisoblanmoqda. Hozirgi davrda jahon xo'jaligidagi bu sohada band ishchi kuchining ulushi yildan – yilga oshmoqda. Butunjahon sayyohlik va turizm kengashi (World Travel and Tourism Council) ma'lumotlariga ko'ra 1996 yil turizm sohasida 225 mln. ish o'rni mavjud bo'lgan bo'lsa, 2006 yilga kelib, yana 130 mln. ish o'rni ortdi. Hozirgi vaqtda turizm sohasida jahondagi mavjud har 10 ta ishchi kuchining biri band. Ayrim mamlakatlarda bu ko'rsatgich yanada yuqori. Masalan, Ispaniyada turizm sohasida iqtisodiy faol aholining 8,3 foizi, Barbadosda – 10,5 foizi, Maltada – 15 foizidan ortig'i band.

Turizm iqtisodiy kategoriya bo'lib, davlatlardan kelgan turistlarga mahalliy xizmatni sotadi, o'z ishchilariga ish-joy sharoitini yaratadi, kirib kelayotgan valyutadan daromat oladi. Bir tomonidan turizm sohasi turistlarga bevosita xizmat qiluvchi tarmoqni taklif qiladi, ikkinchi tomonidan turizm bozoriga yo'naltirilgan xizmat qilish va moddiy ishlab chiqarish kabi bir-biriga qo'shilgan tarmoqlarning o'zaro bog'langan tizimni belgilaydi.

## MUHOKAMA

Turizm – bu ishlab chiqarish va iste'molchining yakdil jarayonidir. Iste'mol obyekti turistik tovar va xizmatlar hisoblanib, iste'mol davrida iste'molchining bu tovarlar va xizmatlar qoniqtirishi lozim. Bunda turizmnинг iste'mol qiymati foydali buyumlar tovarlar, qulaylik va tabiat manzaralari va xizmatning har xil usulidan kelib chiqadi. Turistik iste'mol bir tomonidan tovarga va pullik xizmatga ega bo'lishi, ikkinchi tomonidan tovarlar ko'rinishiga ega bo'limgan joy, yaxshi muhitni o'z ichiga oladi. Turizmni iqtisodiy samarali keluvchi turistlar soni bilan bevosita bog'liq. Turistlar sonni oshib borishi bilan, turizm orqali kelayotgan daromad ham

oshib boradi. O'z navbatida turistlar sonini oshishi turistik qiziqshni orttiradigan obyektlarga, ya'ni turistik resurslarga bog'liqdir.

## XULOSA

O'zbekistonda oxirgi o'n yilda mintaqalarni kompleks rivojlantirish, mahalliy tabiiy-iqtisodiy resurslar asosida investitsion loyihalar tayyorlashni yanada faollashtirish masalalariga katta e'tibor qaratilgan. Ayniqsa, 2017 yilda hududlarni kompleks va mutanosib tarzda rivojlantirishni ta'minlash, mintaqalarning mavjud tabiiy homashyo, ishlab chiqarish va mehnat salohiyatidan oqilona foydalanish, ishlab chiqarish kuchlarini optimal joylashtirish hamda aholi turmush darajasi va sifatini izchil oshirib borishga oid choralarga qaratilgan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorini alohida ta'kidlash lozim. Yana bir rasmiy xujjat mahalliy 19 byudjetlarning daromad bazasini mustahkamlash va nomarkazlashtirish asosida hududlarni kompleks barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan . Umuman ham nazariya, ham amaliyot nuqtai nazaridan mintaqalarning iqtisodiy taraqqiyotni ta'minlashdagi o'rni keskin oshganini ko`rish mumkin. Mintaqada yuqori iqtisodiy o'sish sur`atlari erishish uchun, raqobat afzalliklariga ega tarmoq va korxonalar birinchi o'ringa ko`tarilib, ular ma'lum darajada lokomotiv vazifasini bajarishlari lozim bo`ladi. Ana shunday tarmoqlar qatoriga mintaqaviy xususiyatga ega bo`lgan turizmni qo'shish lozim. Chunki mintaqada boy tabiiy salohiyatga asoslanadigan turizm sohasini keskin rivojlantirish uchun barcha imkoniyatlar mavjud. Turizm o`ziga xos mintaqada uchun o'sish nuqtasi bo`lib xizmat qiladi.

## REFERENCES

1. Baykov, N. Ishlab chiqarishni boshqarishni tashkil etish va samaradorligi / N. Baikov, F. Rusinov. - M.: Moskva ishchisi, 1973 yil.
2. Berg, A.I. Kibernetika - optimal boshqarish fani / A.I.Berg. - M.: Energiya, 1964. 3. Bobrov, O.M. Ijtimoiy ishlab chiqarishni boshqarish funktsiyalari tasniflarini takomillashtirishning ayrim masalalari / Ishlab chiqarish samaradorligining iqtisodiy muammolari. - Kiev: KINH, 1975. - No 12.
3. Glazyev, S.Yu. Texnik taraqqiyotning iqtisodiy nazariyasi S.Yu.Glaziev.- M.: Nauka, 1990 y.
4. Kamenitser, S.E. Sanoat ishlab chiqarishini boshqarish asoslari / SE Kamenitser. - M.: Fikr, 1971 yil.
5. Rossiya Federatsiyasining 2001-2005 yillardagi davlat siyosati kontseptsiyasi // Innovatsiyalar. 2000.- № 3-4.
6. Ober - Krie, J. Korxonani boshqarish / Per. frantsuz tilidan Moskva: taraqqiyot, 8. Petrova, A.S. Sanoat ishlab chiqarishini boshqarishni tashkil etish asoslari / A.S. Petrova. - M.: Iqtisodiyot, 1969 yil.